

---

# OILAVIY MEHMON UYLARI, XOSTELLAR FAOLIYATINI TASHHKIL ETISH TARTIBI QANDAY?

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-noyabrdagi

622-sonli qarori bilan Oilaviy mehmon uylari, xostellar, o`tovli va chodirli oromgohlar faoliyatini tashkil etish to`g`risidagi nizom tasdiqlandi.

Oilaviy mehmon uyi – mehmon uyida uy egasining oila a`zolari bilan birga yashash tamoyili bo`yicha bir vaqtning o`zida 10 nafargacha tashrif buyuruvchilarga (turistlarga) vaqtincha yashash va (yoki) ovqatlanish bo`yicha xizmatlar ko`rsatuvchi, shuningdek, har bir yashovchi shaxsga 3 metr kvadrat hisobidan to`g`ri keladigan turar joy maydoniga ega bo`lgan xususiy uy-joy obyekti.

Nizomga ko`ra, mehmon uylari, xostellar, o`tovli va chodirli oromgohlar faoliyati ularni Turizm qo`mitasi tomonidan yuritiladigan Reestrga kiritish va Reestrda ko`chirma berish orqali tashkil etiladi.



Mehmon uylari faoliyatini tashkil etishda tegishli sharoitlar yaratilgan bo`lishi shart (quyidagi ro`yxatda keltirilgan).

Qaror bilan shuningdek, mehmon uylari, xostellar, o`tovli va chodirli oromgohlarni Reestrga kiritish bo`yicha davlat xizmatini ko`rsatishning ma`muriy reglamenti tasdiqlandi.

Bunda mehmon uyi, xostel, o`tovli va chodirli oromgoh faoliyatini tashkil etish istagini bildirgan shaxs (ariza beruvchi) davlat xizmatidan foydalanish uchun:

Davlat xizmatlari markaziga shaxsan o`zi kelib murojaat etadi;

yoki YaIDXP ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) orqali ro`yxatdan o`tadi.

So`rovnama to`ldirilib, unga tegishli hujjatlar ilova qilinadi.

Turizm qo`mitasining hududiy bo`limlari (vakolatli organ) hujjatlarni olgan kundan boshlab 3 ish kuni davomida ko`rib chiqadi hamda o`rganib chiqish natijasi yuzasidan dalolatnomalar rasmiylashtiriladi.

Davlat xizmati bepul ko`rsatiladi.

Farg`ona tumani adliya bo`limi

YXKM bosh yuristkonsulti N.N.Mullajonov

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2023-12-27 10:30:28